



## URUG'LARINING LABORATORIYA VA DALA SHAROITLARIDA UNUVCHANLIGINING TAHLILI

H.H. Kamolova.  
S.Q. Egamberdiyev

<https://doi.org/10.5281/zenodo.10002296>

### ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 02-October 2023 yil  
Ma'qullandi: 08- October 2023 yil  
Nashr qilindi: 14- October 2023 yil

### KEY WORDS

Xulosa qilib aytganda, barcha tajribalarda bo'ymodaron urug'ining unishi uchun qulay xarorat 250 C ekanligi qayd etildi, bunda o'rtacha unuvchanlik 95 % ni tashkil etdi. Qolgan xarorat variantlarida bu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'ldi.

### ABSTRACT

Bo'ymodaron urug'larining unuvchanligi laboratoriya sharoitida 3 marta takroriylikda o'rganildi. Buning uchun Petri idishchalariga 100 tadan urug' ekildi. Tajriba variantlari sifatida quyidagi xaroratlar tanlab olindi: 7 0C, 100C, 150C, 200 C 250C, 30 0C, 350C. Birinchi tajribada eng optimal xarorat 250 C bo'ldi, bunda urug'larning unishi 95 % bo'lib chiqdi, 200C ham yomon natija bergani yo'q, unish 60 % ni tashkil qildi. Xaroratning 150C ga tushishi yoki 300C ga ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda unuvchanlik 39-40 % ni tashkil etdi.

Bo'ymodaron urug'larining unuvchanligi laboratoriya sharoitida 3 marta takroriylikda o'rganildi. Buning uchun Petri idishchalariga 100 tadan urug' ekildi. Tajriba variantlari sifatida quyidagi xaroratlar tanlab olindi: 7 0C, 100C, 150C, 200 C 250C, 30 0C, 350C. Birinchi tajribada eng optimal xarorat 250 C bo'ldi, bunda urug'larning unishi 95 % bo'lib chiqdi, 200C ham yomon natija bergani yo'q, unish 60 % ni tashkil qildi. Xaroratning 150C ga tushishi yoki 300C ga ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda unuvchanlik 39-40 % ni tashkil etdi.

#### 1.1-jadval

*Achillea millefolium* L. urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi

H °C	Urug'larning unishi									Um umi y soni	%
	20.02.	25.02	30.02	05.03	10.03	15.03	20.03	25.03	30.03.		
7	-	-	2	-	-	-	-	-	-	2	2
10	1	3	4	5	4	2	1	-	-	20	20
15	2	12	15	7	3	1	-	-	-	40	40
20	4	25	20	7	1	1	1	1	-	60	60
25	10	25	26	20	8	1	-	-	-	95	95
30	7	27	4	1	-	-	-	-	-	39	39
35	1	8	6	-	-	-	-	-	-	15	15

(1-tajriba, ekilgan kuni – 15.02. urug'lar soni - 100)

1.2-jadval

*Achillea millefolium L.* urug'larining laboratoriya  
sharoitida unuvchanligi

T°C	Urug'larning unishi									Umu miy soni	%
	01.03	05.03	10.03	15.03	20.03	25.03	30.03	05.04	10.04.		
+7	-	-	2	1	-	-	-	-	-	3	3
+10	1	4	3	5	5	2	3	2	-	25	25
+15	3	11	16	8	2	2	-	-	-	42	42
+20	5	20	25	7	1	1	-	-	-	58	58
+25	9	24	20	25	10	2	2	-	-	98	98
+30	10	25	4	1	-	-	-	-	-	40	40
+35	2	6	2	-	-	-	-	-	-	10	10

Ikkinchi tajribada eng optimal xarorat 25<sup>o</sup> C bo'lib chiqdi, bunda urug'larning unishi 94% ni xosil qildi, 20<sup>o</sup>C xaroratda xam ijobiy natijani berdi, unish 58 % ni tashkil qildi. Xaroratning 15<sup>o</sup>C ga tushishi yoki 30<sup>o</sup> C ga ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sirini ko'ratdi. Bu xaroratda unuvchanlik 40-42 % ni tashkil etdi.

### 1.3-jadval

*Achillea millefolium L.* urug'larining laboratoriya sharoitida unuvchanligi

T°C	Urug'larning unishi									Umu miy soni	%
	10.03.	15.03	20.03	25.03	30.03	05.04	10.04	15.04	20.04.		
+7	-	-	-	2	2	-	-	-	-	4	4
+10	1	2	3	4	2	2	1	-	-	15	15
+15	3	14	16	8	2	1	1	-	-	45	45
+20	3	22	21	9	1	-	-	-	-	56	56
+25	9	29	25	31	1	1	-	-	-	100	100

+30	8	24	2	2	2	-	-	-	-	38	38
+35	1	7	8	2	-	-	-	-	-	18	18

(3-tajriba, ekilgan kuni – 05.03, urug'lar soni - 100)

Uchinchi tajribada xam eng optimal xarorat 25°C bo'lib chiqdi, bunda urug'larning unishi 100 % ni xosil qildi, 20°C xaroratda xam ijobiy natijani berdi, unish 56 % ni tashkil qildi. Xaroratning 15° C ga tushishi yoki 30°C ga ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga o'zining salbiy ta'sirini ko'ratdi. Bu xaroratda urug'larning unuvchanlik qiymati 38-45 % ni tashkil etdi.

Xulosa qilib aytganda, barcha tajribalarda bo'ymodaron urug'ining unishi uchun qulay xarorat 25° C ekanligi qayd etildi, bunda o'rtacha unuvchanlik 95 % ni tashkil etdi. Qolgan xarorat variantlarida bu ko'rsatkich sezilarli darajada past bo'ldi.

Bo'ymodaron urug'larining dala sharoitida unuvchanligini o'rganish uchun quyidagi variantlar belgilandi: ikki xil muddatda ekish (kuzda va bahorda) uch xil ekish chuqurligida olib borildi (0,5-1; 1-2; 2-3 sm).

1.4-jadval

*Achillea millefolium L.* urug'larining dala sharoitida unuvchanligi

Ekish muddati	Ekish chuqurligi (sm)	Ekilgan urug'lar soni	Ungan urug'lar soni	%
Kuzda	0,5 - 1 sm	200	126	63
	1 - 2 sm	200	30	15
	2 - 3 sm	200	0	0
Bahorda	0,5 - 1 sm	200	182	91
	1 - 2 sm	200	110	55
	2 - 3 sm	200	10	5

1.4 – jadval natijalaridan ko'rinib turibdiki urug'larni bahorda ekish kuzda ekishga nisbatan yaxshi samara beradi. Qulay ekish chuqurligi 0,5 - 1 sm xisoblanadi (har ikkala ekish muddatida xam). Bahorgi ekish variantida ushbu chuqurlikda urug'larning unuvchanligi 91 % ni tashkil etdi. Kuzda ekilgan urug'larning unuvchanligining past bo'lishiga sabab, bo'ymodaron urug'larining juda maydaligi va qish mobaynida ularning sovuqdan zararlanishi deb xulosa qilindi. Yuqoridagilardan kelib chiqib dala sharoitida bo'ymodaron urug'larining maksimal unuvchanligi erta bahorda ( fevral oyida) 0.5 - 1 sm chuqurlikka ekish qulay me'yor deb xulosa qilindi.

O'rganilgan o'simlik urug'lari laboratoriya sharoitlarida barcha tajribalarda unishi uchun qulay xarorat 25° C ekanligi qayd etildi,

bunda urug'lar 95-100 % unib chiqdi. Xaroratning 15<sup>o</sup> C ga tushishi yoki 30<sup>o</sup> C ga ko'tarilishi urug'larning unuvchanligiga salbiy ta'sir ko'rsatdi. Bunda unuvchanlik 39-40 % ni tashkil etdi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 2022-2026 yillarda respublikaning farmatsevtika tarmog'ini jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. <http://lex.uz//docs/5834287/> 21.01.2022. PF-55.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 10 apreldagi "Yovvoyi holda o'suvchi dorivor o'simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish to'g'risida" gi PQ-4670-son Qarori. // Xalq so'zi gazetasi, 2020 yil 11 aprel, №75 (7577). – B.
3. Калинкина Г.И., Березовская Т.П. Исследование эфирного масла *Achillea asiatica*. //Химия прир. соедин. - 1995. № 5. - С. 672.
4. Абдуллаев А.А. Очерки истории развития медицины в Хорезме. Ташкент: Медицина, 1980. – 162 с.
5. Хоразм воҳаси tuproqlari // O'zbekiston yer resurslari davlat qo'mitasi Tuproqshunoslik va agrokimyo ilmiy tadqiqot davlat instituti. Toshkent "FAN". – 2003. – B.

